

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраля

## PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Shikorov Tolib Tavakalovich

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o'rgatish yo'llari ko'rib chiqildi. O'rganilayotgan mavzubo'yicha normativ-huquqiy baza, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida ta'limda foydalanishning bir qancha samarali usullari tasnif etildi.*

**Kalit so'zlar:** ta'limda axborot texnologiyalari, talabalar, kompyuterlashtirish;elektron ta'lim, o'qituvchilar

### KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, information texnologiyalar va ulardagi darsturlarga qiziqish juda ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari jamiyat hayotida muhim o'rin egallay boshladi, endilikda barcha sohalarda information texnologiyalar kirib kelgan. Jamiyatning deyarli barcha a'zolari axborot texnologiyalarsiz yashashni tasavvur ham etisholmaydi. Har qanday sohaga kirib brogan kompyuterlashtirish ta'lim sohasida ham o'z o'rniga ega, ta'lim sohasida o'qitish va ta'lim-tarbiya berishda yaratilgan information tizimlar, electron kutubxonalar, electron darsliklar maxsus modulli tizimlar shular jumlasidandir. Kompyuterlar ishlatilmaydigan biron bir sohani tasavvur qilish imkonsiz. Ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas va kompyuterlashtirish jarayonidan o'tdi. Bundan tashqari, kompyuterlar o'rganishning qo'shimcha vositasi sifatida emas, balki uning samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun mo'ljallangan ajralmas ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Axborot texnologiyalardan yuksak maqsadlar yo'lida foydalanish bir necha kichik maqsadlarni o'z ichiga oladi, bunda ta'lim olishda qulaylikni oshirish, yangi imkoniyatlardan foydalana olish, zamonaviy bilimlardan boxabar bo'lish, masofaviy ta'lim olish, imkoniyati, Malaka oshirishda qulaylik sifatida onlayn dasturlar yaratish kabilar shular jumlasidandir. Kompyuter ta'minotlari yordamida ta'lim tizimida yuqoridagi kabi imkoniyatlarni ko'plab yaratish mumkin, bu sohada yangidan-yangi izlanishlar va turli xil tashabbuslar ko'plab etirof etilmoqda.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga samarali olib kirishning natijasida o'qituvchi va talaba orasidagi boshqaruvda zamonaviy information

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраля

muhitning paydo bo'lishiga olib keladi. Axborot texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash borasida yagona information axborot tizim joriy qilinadi shunga ko'ra o'quvchilar auditoriyasi o'zi izlagan ma'lumotlarni qabul qila olish imkoniyatlari uchun yo'l ochadi, ta'limda bunday information tizim yaratilishi pedagogika texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib malum qioda va pedagogic tamoyillar asnosida ta'limga informatsin texnologiya joriy etiladi: faollik tamoyili; mustaqil izlanish imkoni tamoyili; tarbiyaviy ish tamoyili; motivatsiya tamoyili; nazariya va amaliy bog'liqlik tamoyili; samaradolikni oshitish tamoyili kabilar shular jumlasidandiz. Axborot texnologiyalari rivojlanishining hozirgi bosqichini tahlil qilish, ulardan ta'limda foydalanish zamonaviy texnik va dasturiy ta'minot imkoniyatlari, global va mahalliy tarmoqlar hamda ularni qo'llash darajasi o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Ta'lim oluvchilarda o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki informatsion texnologiyalari yordamida ta'lim sohasida turli xil vazifalarni amalga oshirish mumkin ulardan misol qilib aytadigan bo'lsak kundalik nazoratlarni baholab borish yoki bo'lmasa nazoratlarni yetarlicha to'g'ri baholay olish imkoniyati axborot texnologiyalari uchun juda oson va tez natija, samara bera oladigan usul hisoblanadi, ko'pchilik nazoratlarni baholashda muammolarga duch keladi buning sababi baholash uchun belgilangan vaqtning yetarli emasligi yoki bo'lmasa baholovchining adekvat yondashuvi bo'lmaganligidan shikoyat qilinadi. Axborot texnologiyalari yordamida baholash turlicha usullarda kechishi mumkin, bu juda tez va aniqlikda bajariladi, ammo inson aralashuvisiz baholash ba'zan yetarli samarasiz deya takidlovchilar ham uchrab turadi. Yangi pedagogik bilimlarni olish uchun talaba yoshlar endilikda kompyuter tizimlaridan unumli foydalanishlari ularda vaqt tejashga va yangi ma'lumotlarni zudlik bilan tezda o'zlashtirishga imkon beradi.

Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini o'qitish samaradorligini oshiradi, agarda:

- talaba yoshlar uchun izlashtirish kerak bo'lgan model va dasturlar yetarlicha kompyuter texnologiyalar asosida yaratilgan bo'lsa;
- axborot texnik vositalaridan foydalanishda samarali usullarni ishlab chiqilgan bo'lsa;
- kompyuterlar va modullar o'quv dastur va jarayonlariga muvofiq kelgan holatda;
- talabalar uchun o'quv jarayonda kompyuter modullashtirish tizimlaridan foydalanish va axborot almashinishida kasbiy va uslubiy tayyorgarlikni oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishda xizmat qilishi lozim;

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраля

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimidagi juda ko'p muammolarni oldini olishga hal qilishga yordam beradi: pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy va hatto nazariy va uslubiy jihatdan sezilarli darajada ta'sir qiladigan ta'lim tizimining asoslari tub o'zgarishlar bilan birga keladi. Shunday qilib, ta'limni axborotlashtirish o'quv jarayonining muayyan tomonlarini o'zgartirishga olib keladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishidagi istiqbollar bilan birgalikda kamchiliklarni ham inobatga olishimiz zarur, endilikda axborotlarni qabul qilishda muayyan me'yorga amal qilishimiz zarur hisoblanadi axborot vositalarining ortishi kishilarni e'tiborini jalb qilish vositalarining ortishi bilan barobardir.

Darslarda axborot texnologiyalar yordamida videometodlaridan qo'llash juda samarali usul hisoblanadi, bu metod yordamida turli xil fikr va mulohazalarni yaxlit ketma-ketlik asosida bayon qilish va tushunarli tilda yetkazib berish shu bilan birgalikda ularga ko'rgazma sifatida namunalarni ko'rsatish mumkin, video metod yakunida ketma-ketlik sifatida test metodini ham qo'llash kerak bo'ladi, bunday o'rganilayotgan mavzu yuzasidan terilgan savollarga ketma-ket to'g'ri javob berish ma'lum bir informatsion dastur asosida amalga oshiriladi, bu olingan bilimlarni o'z vaqtida takrorlashni hamda bilimlarni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. metod natijasi informatsion texnologiya yordamida tezda hisoblab beriladi va natijalar talabning o'ziga yaqqol ko'rinadi, bunday baholash yordamchi usul hisoblanib asosiy baholarga ta'sir etmaydi faqatgina yakuniy test yakuniy natijani hal qiladi.

Zamonaviy informatsion texnologiyalar yordamida talabalar mustaqil izlanishlari uchun ham shunday vazifa va video metod darsliklarni qo'llash mumkin bunday butun boshli bir tizim maxsus ishlarni algoritmlarni ketma-ketlikda amalga oshiradi, masalan videometod orasida o'tkaziladigan tezkor savol-javoblarga qancha test javob bersangiz sizni keyingi ma'lumotlar bilan tanishtiradi, testda yuqori natija yoki kerakli natijani qo'lga kiritmagan talaba bu videometodni qayta ko'rishga urinishga to'g'ri keladi.

Markazlashgan yagona tizimi orqali talabalarga ma'lumotlarni ulashish juda samarali hisoblanib bu qisqa muddatda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va to'g'ri tushunishga yordam beradigan algoritmlar hisoblanadi bu algoritmlar o'zga kerakli bo'lgan ma'lumotni izlayotgan talabaga bu sohadagi ma'lumotlarni to'liq va ketma-ketlikda dastur yoki modulga joylashtirgan holatda yetkazib berishi mumkin hisoblanadi, albatta bunda ham baholash o'z o'rniga uyga alohida usul hisoblanadi.

Hozirda ko'pchilik kompyuterlardan qo'shimcha ma'lumot olish yordamchisi sifatida foydalanadi kompyuter bundanda yuqori samarali ishlarni qilishga qodir alohida qurilmadir uning imkoniyatlaridan foydalangan holatda yangi interfeyslar

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраля

yangi zamonaviy saytlarda ishlash imkoniyati ulardan foydalanish imkoniyati bizga berilgan bu texnologiyalarni to'g'ri kerakli yo'lda aniq maqsad bilan harakatga keltirib ishlatsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birgina oxirida nazorat o'tkazilishi zarur bo'lgan videometod orqali ham biz qanday ulkan natijalarga erishishimizni ko'zda tutdik. agarda boshqa metodlar ustida ham qo'shimcha yangiliklar kirita olsak ta'lim tizimida yaxshi natijalarni olish mumkin.

## XULOSA

Axborot texnologiyalari asosiy ta'lim vazifasidan tashqari o'quvchining ijodiy mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, zamonaviy dunyoga nisbatan fikrlashini rivojlantiradi. Mutaxassislik fanlardan tashqari, oquvchi qo'shimcha ta'lim olishi mumkin, masalan: dasturlash tillarini o'rganishi, onlayn kurslardan, simulyatorlardan foydalanishi va istalgan ijtimoiy tarmoqda muloqot qilishi mumkin. Yashash joyi va yoshidan qat'iy nazar bilim olishingiz mumkin. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo'ylab tarmoq va turli xil dasturiy mahsulotlar o'z ishlanmalari turlichadir. Aynan axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli yangicha masofaviy ta'limni davom ettirish g'oyasi to'liq amalga oshirilmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalari ko'proq odamlarni o'rganishga, turli tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga, innovatsion loyihalar va maqolalar yaratishga undaydi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarni zamonaviy hayotga va mehnatga tayyorlash uchun zarurdir.

## REFERENCES

1. Нурматов С.М. Теоретические основы и методология использования мультимедийных технологий в обучении. Автореферат диссертации ... доктора педагогических наук. Санкт-Петербург, 2020.
2. Rustambekov M.M. O'zbekiston Respublikasi maktablarining ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. M.: Тенденции развития высшего образования в новых условиях, 2021.
3. Akhmedova, M. M., & Khomidova, M. M. K. (2021). Modern methods and technologies in teaching literature. *Scientific progress*, 2(3), 317-325
4. Tavakkalovich, S. T., Tohirovich, R. E., & Dilmurodovna, R. D. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUVLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(1), 352-356.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

## Том 2, Выпуск 2, 29 Февраля

5. Shikarov, T. T. (2021). Acmeological approach to the development of the activities of future teachers. *European research*, 1(38), 75-77.
6. Shikarov, T. T. (2022). Akmeologik yondashuvlar asosida o'qituvchi kasbiy mahoratini oshirish. *Science and Education*, 3(4), 1081-1086.
7. Шикаров, Т. Т. (2021). АКМЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *European research*, (1 (38)), 75-77.
8. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 383-388.
9. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
10. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 138-143.
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.
12. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL*, 7.
13. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
14. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
15. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(1), 54-68.